

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUL, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-222-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

G`ulomov Ibrohim

MANG`IT NA`MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA`DANLARNI

BOYITISH.....4-10

TARIX FANLARI

Xolova Umida, Jalolova Zarina

MA`RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO

NIGOHIDA 11-14

Sobirov Sardorbek

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAFLAT FAOLIYATIGA

BIR NAZAR..... 15-19

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

OILAVIY QADRIYATLARNING AXLOQIY XUSUSIYATI 20-22

FILOLOGIYA FANLARI

Xudoynazarova O`g`lonoy

TIBBIY DISKURDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR 23-25

Abdukaxarova Gulnoza

O`ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA`SIR

ETUVCHI OMILLAR 26-28

Mustafayev Ozod

O`ZBEKISTONDA "RAQAMLI (INTERAKTIV) ADABIYOT" MUHITINING SHAKLLANISHI VA

ADABIY ASARLARNING ONLAYN PLATFORMALARDAGI EVOLUTSIYASI 29-32

YURIDIK FANLARI

Allamberganova Farida

ISTE`MOLCHI HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKSON

HUQUQIY TIZIMLARIDAGI O`ZIGA XOS XUSUSIYATLAR 33-40

PEDAGOGIKA FANLARI

Rasulov Erkin

KOGNITIV HAMDA METAKOGNITIV FAOLIYATLAR O`RTASIDAGI BOG`LIQLIK VA ULARNI

RIVOJLANTIRISH USULLARI 41-45

PSIXOLOGIYA FANLARI

Smetova Gulzar

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI..... 46-48

PSIXOLOGIYA FANLARI

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI

Smetova Gulzar Kalbayevna

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti "O'zbek tili, tillar va ijtimoiy fanlar" kafedrası

Psixologiya va pedagogika fani assistent o'qituvchisi

Tel: +998 99 958 47 47

Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya. Tibbiyot xodimi faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati. Shaxsning individual psixik xususiyatlari, sifatleri, jarayonlari, fazilatleri, xislatleri, xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, muomalasi, ongi, faoliyati. Insonlar guruhi va ularning ta'siri.

Kalit so'zlar: tibbiyot psixologiyasi. Psixologik bilimlar. Individual psixik xususiyatlari. Psixik sifatlar. Psixik jarayonlar. Psixik fazilatlar va xislatlar. Shaxs xulq-atvori. Shaxs xatti-harakatlari va muomalasi. Inson ongi va faoliyati.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE ACTIVITIES OF A MEDICAL WORKER

Smetova Gulzar Kalbaevna

Department of "Uzbek language, languages and social sciences" of the Medical Institute of Karakalpakstan

Psychology and Pedagogy Teacher's Assistant

Annotation. The importance of psychological knowledge in the activities of a medical worker. Individual mental characteristics, qualities, processes, qualities, traits, behavior, actions, communication, consciousness, activity of the individual. A group of people and their influence.

Key words: Medical Psychology. Psychological knowledge. Individual mental characteristics. Mental qualities. Mental processes. Psychic qualities and properties. Personality behavior. Personality behavior and communication. Human consciousness and activity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-222-0/uzb-10>

Keyingi yillarda butun jahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxassislari bo'lishidan qat'iy nazar ularni psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bo'lajak shifokor o'z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari shaxs psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, shaxs taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to'g'ri psixologik xulosalar chiqara bilishga o'rganish talab etilmoqda.

Tibbiyot xodimi faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati yuzasidan mulohaza yuritir ekanmiz, tibbiyot sohasi asoschilardan biri, buyuk mutafakkir Ibn Sino fikrlariga qaratamiz. Ibn Sino o'z asarlarida kasalliklarning rivojlanishida psixik omillarga katta e'tibor qaratadi. U kasalliklarning bir-biriga o'xshash bo'lishiga qaramasdan, har bir bemorni davolashda bemorni diqqat bilan o'rganish va parvarish qilish, shuningdek, bemorning

oilasidagi psixologik muhit, oila a'zolari, yashash sharoiti bilan tanishish o'ta muhimligini ta'kidlagan. Olimning fikricha, bir xil kasallik har kimda turlicha kechadi, bemorning darddan xalos bo'lishi uning xuliq-atvoriga, oilaviy sharoitiga, iqtisodiy ta'minlanganligiga, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligiga va qolaversa uni kim davolayotganligiga bog'liq. U ba'zi odamlar o'zlariga kasallikni singdirib, o'zida kasallik belgilarini paydo qilishini va so'ngra undan aziyat chekib yurishlarini yozib qoldirgan. Bu borada Ibn Sino: "Barcha ruhiy kuchlarning manbai va ta'sir qiladigan joyi asabdir, uni ortiqcha zo'riqtirish turli kasalliklarga olib keladi. Bosh miya markazlari butun organizm faoliyatini va ruhiy faoliyatni boshqaradi", degan edi. Buyuk alloma tibbiyot xodimi nafaqat kasalliklar haqida, balki avvalo bemorning ruhiy dunyosi haqida bilimga ega bo'lish kerakligini uqtiradi. [1; 157–158-s.]

Buyuk faylasuf Suqrot o'z davrida ta'kidlaganidek, "ruhni davolamasdan turib, tanani davolab bo'lmaydi". [1; 158-s.] Bu fikr shuni bildiradi. Inson salomatligi faqat jismoniy emas, balki ruhiy holatga ham bog'liq. Agar odamning ichki dunyosi- ruhiyati, his-tuyg'ulari, kayfiyati, stress darajasi sog'lom bo'lmasa, u holda har qanday jismoniy davolash to'liq natija bermaydi. Chunki, ruhiy siqilish immunitetni pasaytiradi, negativ fikrlar tanadagi tiklanish jarayoniga to'sqinlik qiladi. Stress, tashvish, qo'rquv yoki depressiya kabi holatlar ko'plab kasalliklarning sababchisidir. Psixologiyada Psixosomatik kasalliklar degan tushuncha mavjud. Bu ruhiy muammolar sababli kelib chiqadigan jismoniy kasalliklardir (masalan: yurak xurujlari, oshqozon yarasi, bosh og'rig'i). Shifokorlar va psixologlar birgalikda ishlaganda bemorning sog'ayish ehtimoli ko'proq bo'ladi.

Hayotiy misol, bir odam yurak og'rig'idan shikoyat qiladi, ammo tekshiruvlar yuragida muammo yo'qligini ko'rsatadi. Aslida u doimiy tashvish va qo'rquv ostida yashayotgan bo'ladi. Agar u psixologik yordam olsa, yurak og'rig'i ham yo'qoladi.

Tibbiyot xodimi faoliyati "Inson-inson" yo'nalishi (E.A.Klimov) sohalari tarkibiga kiradi. Shunday ekan u asosan aholini turli kasalliklardan davolash, profilaktika qilish, reabilitatsiya ishlarini olib boradi, ya'ni inson uning ob'ekti sanaladi. Tana bevosita ruh bilan uzviy bog'liq ekan, tibbiyot xodimi inson psixikasi qonuniyatlarini bilish zaruriyatini Rus terapevti M.Ya.Mudrov "ayrim odamlarda kasalliklarga tana, boshqasida ruhiy kechinmalar sababchi bo'ladi", deya e'tirof etadi. Bu esa, tibbiyot psixologik tadqiqotlar natijalarini o'rganmasdan turib, ayrim kasalliklarni davolay olmasligini, chunki bugungi kunda psixologik sabablardan kelib chiqadigan xastaliklar soni ortib borayotganligini izohlaydi. [1; 158-s.]

Shunday ekan, tibbiyot xodimi shaxsning individual psixik xususiyatlari, sifatlari, jarayonlari, fazilatlari, xislatlari, xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, muomalasi, ongi, faoliyati, insonlar guruhi va ularning ta'siri haqidagi bilimlarni egallashi lozim.

Hayotda juda ko'p uchraydigan, ayniqsa, shifokorlar faoliyatida namoyon bo'luvchi tibbiy uslub arziyas ijobiy siljishni payqash imkoniyatini yaratadi. Amaliy faoliyatda erishilgan ushbu samara psixologik tahlilga muhtoj bo'lib, uni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv yoki sub'ektiv omillarni dalillash ancha mushkul hisoblanadi. Buning uchun o'zgalarga ta'sir o'tkazish usuli, ularda ichki imkoniyatga ishonch tuyg'usini uyg'otish qo'zg'ovchisi, ta'sirga beriluvchanlikni kuchaytiruvchi motivlar (*fransuzcha motiv qo'zg'atuvchi sabab ma'nosini bildiradi*) tabiatini chuqur tahlil qilish va shu yo'l bilangina siljishning psixologik ma'no kasb etishini dalillash mumkin, xolos.

Xulosa qilib aytganda psixologiya insonning ichki imkoniyati, iste'dodi, ishchanligi, qobiliyati yuzasidan umuminsoniy tavsifga ega bo'lgan teran bilimlar bilan qurollantiradi. Buning natijasida odam psixikasini aniqlash, bashorat qilish, ayrim ruhiy nuqsonlarni tuzatish, noxush kechinmalarning oldini olish imkoniyati tug'ilib, bu esa ijtimoiy-psixologik bog'lanishlar mohiyatini oqilona tavsiflash uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy va yakkahol turmush og'irliklari va tashvishlarini kamaytirish, aqliy hamda jismoniy zo'riqlashlarni pasaytirish, shaxslararo nizolarni bartaraf etish singari sa'y-harakatlarni faqat ilmiy psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish mumkin.

Shuning uchun psixologiya turli sohalarida o'tkazilgan tadqiqot ishlari ilmiy asosda psixika, psixik holat, psixik hodisa, psixik jarayon, psixik funksiya, psixik xususiyat, ijodiyot, faoliyat, ong, xulq, muomala singari tushunchalar bo'yicha materiallar to'plab beradi, shuningdek, psixik aks ettirishning (fizik, fiziologik, psixik, ong, o'zini o'zi anglash) moddiy asoslari, mexanizmlari yuzasidan qonuniyat ochishga imkon yaratib, hatto insonni o'zligini anglash va boshqarish sari etaklaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Умаров Б.М., Шойимова Ш.С., Розиева Д.И. Педагогика, Учебник. Ташкент. 2019 год
2. Шамшетова А.К., Мелибаева Р.Н., Усманова Х.И., Хайдаров Ю.Х. Общая психология, Учебник. Ташкент, 2018.
3. Умаров Б.М., Психология, Учебное пособие. Ташкент. 2011 г.
4. Шойимова Ш.С. Психология личности, Учебное пособие. Ташкент. 2017 год

Internet sayti:

1. www.edu.uz – официальный сайт ОО'MTV.
2. www.ziyounet.uz – образовательный портал.
3. www.pedagog.uz – официальный сайт ТДПУ.
4. www.natlib.uz – сайт Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 10-iyul

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.